JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XOLMATOVA MALIKA IBADULLAYEVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ADYEKTIV FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK-GRAMMATIK TAVSIFI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Jizzax – 2026

UO‘K: 811.111'373.7-047.29+811.512.133'373.7-047.29

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Xolmatova Malika Ibadullayevna
Ingliz va o‘zbek tillarida adyektiv frazeologizmlarning leksik-grammatik tavsifi 3

Kholmatova Malika Ibadullayevna
Lexical and grammatical description of adjectival phraseological units in English and Uzbek languages 25

Холматова Малика Ибадуллаевна
Лексико-грамматическая характеристика адъективных фразеологизмов в английском и узбекском языках 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ..... 52

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XOLMATOVA MALIKA IBADULLAYEVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ADYEKTIV FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK-GRAMMATIK TAVSIFI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Jizzax – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4229 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (jdpu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mamatov Abdug‘afur Eshonqulovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Axmedov Oybek Saporboyevich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Gadoyeva Mavluda Ibragimovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat universiteti**

Dissertasiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 raqamli Ilmiy kengashining 2026 yil «____»_____soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56; e-mail: jdpuinfo@umail.uz. Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o‘quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertasiya avtoreferati bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi 4. Tel.:(872) 226-13-57, 226-21-73; faks: (872) 226-46-56).

Dissertasiya avtoreferati 2026 yil «____» _____ _____ da tarqatildi.
(2026 yil «____» _____ dagi _____raqamli reestr bayonnomasi)

U.A. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rais o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

X.L. Maxammadiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.R. Ermatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining hozirgi bosqichida frazeologiya taraqqiyotning muayyan pog‘onalarini bosib o‘tgan bo‘lsa-da, adyektiv frazeologizmlarning real nutqdagi chastotaviy faolligi, grammatik modellari va kontekstual-semantik xususiyatlarini turli tillar kesimida korpus lingvistikasi asosida qiyosiy o‘rganish masalasi yetarlicha qamrab olinmagan. So‘nggi yillarda dunyo tilshunoslari an’anaviy tadqiqot usullaridan tashqari, til korpuslari asosida empirik ma’lumotlarga tayangan, statistik tahlillar bilan tasdiqlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirmoqdalar. Shu sababli Corpus of Contemporary American English (COCA), British National Corpus (BNC), English Web 2021 (enTenTen21) ma’lumotlar bazasi va milliy til korpusi asosida adyektiv frazeologizmlarning turli kontekstlarda qo‘llanilishi, janrlar kesimidagi chastotasi, leksik-grammatik xususiyatlari hamda semantik o‘zgarishlarini ishonchli statistik raqamlar orqali tahlil qilish mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Dunyo qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunosligi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda frazeologik birliklarning strukturaviy modellari, komponent tarkibi, semantik tasnifi hamda funksional xususiyatlarini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Bugungi kunda mazkur yo‘nalishdagi ustuvor vazifalardan biri adyektiv frazeologizmlarning leksik-grammatik tabiatini, strukturaviy-sintaktik modellarini, semantik xususiyatlarini hamda real nutqdagi qo‘llanish faolligini zamonaviy korpus lingvistikasi va qiyosiy-tipologik yondashuvlar uyg‘unligida aniqlash, shuningdek, ingliz va o‘zbek tillari frazeologik tizimida ularning umumiy va farqli jihatlarini belgilashdan iboratdir. Bunday qiyosiy tahlil natijalari ikki tilning frazeologiya, tarjimashunoslik, lingvokulturologiya va xalqaro kommunikatsiya sohalari rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish, zamonaviy lingvistik tadqiqot metodlarini joriy etish, raqamli texnologiyalar va kompyuter lingvistikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda ilmiy tadqiqotlarning amaliy samaradorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, “Ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashuvchi zamonaviy axborot muhitini – milliy ilmiy portalni yaratish, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish va ilmiy salohiyatini oshirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan[1]. Bu esa mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta’minlash, xorijiy tillarni o‘qitish va lingvistik tadqiqotlarni yangi ilmiy yondashuvlar asosida rivojlantirish, shuningdek, olingan natijalarni amaliyotga keng tatbiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF–6097-son farmoni “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2020-y., https://lex.uz/ru/docs/-5073447

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining mazmuniy tomoniga bo‘lgan qiziqishning oshishi muhim xususiyatlardan biridir. Frazeologizmlarni turli tematik rakursda tahlil qilish, ularni ekspressiv va emotsional semalarga ajratish, inson tashqi ko‘rinishi, rang belgilari, turli tipdagi ma’nolar va ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganishning obyektiv qonuniyatlari va samaradorligini ko‘plab mahalliy va xorijiy lingvistlar tadqiqotlarida kuzatishimiz mumkin. Ingliz olimi A.Cowie ta’kidlaganidek, klassik rus nazariyasi hozirgi frazeologik tadqiqotlarga keng ta’sir ko‘rsatgan[2].

Rus tilshunosligi doirasidagi tadqiqotlarda Z.N. Anisimova, N.M. Sidyakova, V.G. Pechenkina, A.V. Kunin, E.F. Arsentyeva kabi olimlarning tadqiqotlarida FB(frazeologik birlik)larning strukturaviy, semantik va qiyosiy xususiyatlari turli aspektlarda o‘rganilgan[3]. Adyektiv frazeologizmlarga bag‘ishlangan so‘nggi tadqiqotlarda komparativ birliklar, rang-tus komponentli frazeologizmlar hamda sifat komponenti asosida shakllangan FBlar asosiy tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lgan. Jumladan, A.V. Terentyev, S.G. Karimova va A.N. Lyubovaning tadqiqotlarida ingliz, rus, nemis va norveg tillaridagi adyektiv komparativ frazeologik birliklar yoritilgan bo‘lsa[4], R. Zakirov, M. Nazirova, Ya.A. Biyik va

[2] Cowie A. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Clarendon Press, 1998. - 258 p.

[3] Анисимова З. Н. Фразеологические единицы типа «прилагательное + существительное» в современном английском языке /с приложением словаря фразеологических единиц/. Дисс. ... канд. филол. наук. - Москва, 1954. – 428 с.; Сидякова Н. М. Компаративные фразеологические единицы типа (as) + прилагательное + as + существительное в современном английском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Москва, 1964.; Печенкина В. Г. Адъективно-субстантивные фразеологические сочетания в современном русском языке (фраземы с несерийной сочетаемостью имени прилагательного): автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ростов-на-Дону, 1969; Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. - М.: Высшая школа, 1996. – 381 с.; Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц, выражающих характер человека, в английском и русском языках. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М. 1984.

[4] Терентьев А. В. Адъективные компаративные фразеологические единицы как языковая универсалия: на материале англ. яз.: дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 1997. – 352 с.; Каримова С.Г. Адъективные

S. Zhou tadqiqotlarida esa ingliz va boshqa tillardagi rang-tus komponentli FBlarning lingvistik hamda kognitiv xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilingan[5].

Ingliz tili frazeologiyasini korpus materiallari asosida o‘rganishda R. Moonning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Uning “Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach” asari frazeologik birliklar haqidagi asosiy manbalardan biri hisoblanadi[6]. Shuningdek, A. Makkai[7] “sifat+ot”, “sifat+sifat” tuzilishidagi idiomalarni tadqiq etgan bo‘lsa, Michael McCarthy va Felicity O'Dell[8] idiomalarni tematik guruhlar asosida tasniflash masalasiga e’tibor qaratgan.

Adyektiv frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganishga doir tadqiqotlar turli tillar materiallari asosida ham amalga oshirilgan. Xususan, L.T. Miftaxutdinova[9] ingliz va turk tillaridagi sifat komponentli frazeologik birliklarni, M.Ya. Eljurkaeva[10] esa ingliz va chechen tillaridagi mazkur birliklarni qiyosiy jihatdan tadqiq etgan. M.A. Sulaymonova[11] nemis va o‘zbek tillarida inson xarakterini ifodalovchi frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilgan. M. Dedej[12] esa adyektiv frazeologik birliklarni semantik va sintaktik jihatdan o‘zaro bog‘langan komponentlardan tashkil topib, yaxlit ma’no ifodalovchi birliklar sifatida tavsiflagan.

O‘zbek tilshunosligida adyektiv frazeologizmlarning o‘rganilish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, A.Rafiyev “Iboralar-nutqimiz ko‘rki” asarida o‘rganilayotgan muammoga sintaktik jihatdan qisqacha nazar tashlagan[13]. Professor A.E. Mamatov[14] o‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalarini tadqiq etgan. M.Y. Vafoyeva[15] sifat frazeologik birliklarning sinonimiyasiga to‘xtalgan bo‘lsa, Sh.T. Almamatova[16] o‘zbek tili frazemalarining komponent tahlilini o‘rganishga

---

фразеологические единицы метафорического характера в английском и русском языках: Дис. .., канд. филол. наук. – Казань, 2007. – 169 с.; Любова А.Н. Адъективные компаративные фразеологизмы в английском, немецком и норвежском языках: общее и специфическое: Дис…, канд. филол. наук. – М., 2009. – 207 с.

[5] Закиров Р. Р. Фразеологические единицы с компонентом цветообозначения в английском, русском и татарском языках: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Казань, 2003. – 20 с.; Назирова М. Фразеологические единицы с компонентом цветообозначения английского, таджикского и русского языков: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Душанбе, 2009. – 24 с.; Byiyk I. A. Phraseological units with a colour component in the English and Turkish languages: avtoref. dis. … kand. filol. nauk. – Kazan, 2016. – 24 p.; Zhou S. A Cognitive Analysis of Conceptual Metaphors of Color Idioms in English and Chinese Based on Data Mining // MMIA 2020. Advances in Intelligent Systems and Computing. – Cham: Springer, 2021. – Vol. 1234. – P. 511–523.

[6] Moon, R. Fixed Expressions and Idioms in English. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 115 p.

[7] Makkai, Adam. Idiom Structure in English. – Berlin: Walter de Gruyter, 2013. – 371 p.

[8] McCarthy, M., O'Dell, F. English Idioms in Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.

[9] Мифтахутдинова Л. Т. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом-прилагательным в английском и турецком языках: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Казань, 2003. – 89 с.;

[10] Эльжуркаева М. Я. Фразеологические единицы с компонентом-прилагательным в чеченском и английском языках: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Майкоп, 2024. – 26 с.;

[11] Сулаймонова М. А. Фразеологические единицы качественной характеристики человека в немецком и узбекском языках: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Душанбе, 2005. – 24 с.;

[12] Dedej M. Phraseological units and the integration of other elements in English and Albanian // Social Studies, International Journal. – 2014. – Vol. 8, No. 1. – P. 73.

[13] Рафиев А. Иборалар – нутқимиз кўрки. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 1985. – 25 б.;

[14] Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: филол. фан. ... док. дисс. – Тошкент, 1999. – 312 б.;

[15] Вафоева М. Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: филол. фан. номзоди ... дисс. – Тошкент, 2009. – 127 б.

[16] Алмаматова Ш. Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: филол. фан. номзоди ... дисс. – Тошкент, 2008. – 116 б.

doir nomzodlik ishining bitta bobini sifat komponentli frazemalarning semantik tahliliga bag‘ishlagan. Yuqoridagi tadqiqotlardan shu narsa ayonki, adyektiv frazeologizmlar faqat o‘zbek tili misolida qisman tor doirada o‘rganilgan bo‘lib, boshqa qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan chog‘ishtirib, qiyosiy nuqtai nazardan kompleks tahlil etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Raqamlashtirilgan ta’lim muhitida xorijiy tillarni o‘qitishni takomillashtirish va filologik tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi adyektiv frazeologizmlarning lingvistik maqomini belgilash, ularni adyektiv frazeologizmlar sifatida tavsiflovchi mezonlarni ishlab chiqish, leksik-grammatik tabiatini qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda yoritish, strukturaviy-sintaktik modellari, semantik xususiyatlari va funksional imkoniyatlarini ochib berish, real nutqdagi qo‘llanish faolligini korpus lingvistikasi asosida qiyosiy o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o‘zbek tillaridagi adyektiv frazeologizmlarning lingvistik maqomi, tarkibiy xususiyatlari va real nutqdagi qo‘llanish faolligini qiyosiy tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi adyektiv frazeologizmlarning leksik-semantik, grammatik-strukturaviy va morfologik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq etish, ularning semantik hamda strukturaviy tasnifini ishlab chiqish;

binomial, predlogli, sifatdoshli va boshqa adyektiv komponentli frazeologik birliklarning funksional-stilistik xususiyatlarini yoritish hamda korpus materiallari asosida qo‘llanish chastotasini statistik jihatdan tahlil qilish;

tadqiqot natijalari asosida izohli va ikki tilli adyektiv frazeologizmlar lug‘atini yaratish hamda sifat komponentli frazeologik birliklarni tizimli ravishda taqdim etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi adyektiv frazeologizmlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillaridagi adyektiv frazeologik birliklarning tarkibiy modellari, morfologik-sintaktik tuzilishi, semantik xususiyatlari, metaforiklik va emotsional-ekspressivlik darajasi, funksional-stilistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida strukturaviy-tipologik, sinxron-qiyosiy, struktur-grammatik, leksik-semantik, konseptual, korpus va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi adyektiv frazeologizmlar korpus materiallari asosida kompleks qiyosiy-statistik jihatdan o‘rganilib, ularning tarkibiy, leksik va struktur xususiyatlari aniqlangan; ingliz tilida 602 xil, o‘zbek tilida 103 xil sifat qo‘llanilganligi, ulardan eng yuqori faollik good (146 birlik) va qora (49 birlik) sifatlariga xos ekanligi asoslangan;

adyektiv frazeologizmlar semantikasida antropotsentrizm ustuvorligi aniqlanib, inson shaxsiga oid salbiy xarakter-xususiyatlarini ifodalovchi birliklar ijobiylarga nisbatan ustunligi, semantik petrifikatsiya asosida, komponentlar idiomatik mazmunni ifodalashi, ayrimlari literal yoki kontekstual ma'nosi qisman saqlanib, umumiy obrazli mazmunni shakllantirishi dalillangan;

ingliz va o'zbek tillarida adyektiv frazeologizmlarning asosiy qismi atributiv, predikativ, kontributiv predikativ pozitsiyasida bo'lib, o'zbek tili adyektiv frazeologizmlar morfologik tarkibiga ko'ra maxsus tasnifga ega emasligi aniqlanib, grammatik xususiyatlari asosida guruhlarga ajratilgan va o'zbek tilida ot + sifat (N + Adj) modeli (186 birlik) eng mahsuldor strukturaviy modelligi ilmiy asoslangan;

tipologik tahlil natijasida o'zbek tilidagi komparativ adyektiv frazeologizmlarning morfo-sintaktik inkor transformatsiyalarini qabul qilmaydigan semantik monolit birliklar ekanligi aniqlanib, ingliz tilida predlogli adyektiv frazeologizmlarning eng mahsuldor tur ekanligi, o'zbek tilida esa mustaqil predlogli adyektiv iboralar mavjud emasligi, biroq binomial konstruksiyalarning qo'llanishi orqali ikki tilning grammatik-tipologik farqlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi adyektiv frazeologizmlarning leksik-grammatik, morfologik-sintaktik, strukturaviy-modellashtirish hamda semantik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish natijalari asosida adyektiv frazeologik birliklarni tizimlashtirish va tavsiflashning amaliy mezonlari ilmiy jihatdan asoslangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi adyektiv frazeologizmlarning strukturaviy modellari, morfologik-sintaktik xususiyatlari, semantik turlari hamda milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi materiallar asosida "Qisqacha inglizcha-o'zbekcha adyektiv frazeologizmlar" lug'ati nashr etilib, lug'at birliklarining leksikografik tavsifi va amaliy qo'llanish imkoniyatlari dalillangan;

o'zbek tilidagi adyektiv frazeologizmlarning semantik xususiyatlari, izohlanishi va kontekstual qo'llanishini yoritishga xizmat qiluvchi "Adyektiv iboralar" izohli lug'ati tuzilib, nashr etilgan hamda mazkur lug'at materiallaridan o'zbek frazeologiyasi, leksikografiya va til ta'limi jarayonlarida amaliy foydalanish mumkinligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning zamonaviy nazariyalarga mosligi hamda metodologik jihatdan asoslanganligi, tadqiq materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, xulosalarning qat'iyligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar tatbig'ining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tillaridagi adyektiv frazeologik birliklarning leksik-grammatik tabiati, tarkibiy modellari, morfologik-sintaktik tuzilishi, leksik-semantik va funksional xususiyatlari qiyosiy-tipologik hamda korpus tahlili asosida aniqlanib, ularning tipologik mushtarak va farqli jihatlari asoslanganligi hamda olingan natijalar frazeologiya, leksikologiya, qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik va korpus lingvistikasi nazariyasini boyitishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallari va xulosalaridan ingliz va o‘zbek tillariga oid frazeologik lug‘atlar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va elektron lingvistik resurslar yaratishda, oliy ta’limda frazeologiya, qiyosiy tilshunoslik va xorijiy tillarni o‘qitish fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlar mazmunini takomillashtirishda, shuningdek, keyingi ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida adyektiv frazeologizmlarning leksik-grammatik tavsifi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

ingliz va o‘zbek tillaridagi adyektiv frazeologizmlar korpus materiallari asosida kompleks qiyosiy-statistik jihatdan o‘rganilib, ularning tarkibiy, leksik va struktur xususiyatlari aniqlangan; ingliz tilida 602 xil, o‘zbek tilida 103 xil sifat qo‘llanilganligi, ulardan eng yuqori faollik good (146 birlik) va qora (49 birlik) sifatlariga xos ekanligiga asoslangan xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022–2024-yillarga mo‘ljallangan “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun o‘zbek tilining morfologik analizatori va morfoleksikoni dasturiy vositasini yaratish” (IL-402104209 raqamli) nomli innovatsion grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 15-maydagi 01/4-1996-son ma’lumotnomasi). Natijada, dasturiy vosita algoritmlarini aniqlash va ularni avtomatik tahlil qilish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan;

adyektiv frazeologizmlar semantikasida antropotsentrizm ustuvorligi aniqlanib, inson shaxsiga oid salbiy xarakter xususiyatlarini ifodalovchi birliklar ijobiylarga nisbatan ustunligi, semantik petrifikatsiya asosida, komponentlar idiomatik mazmunni ifodalashi, ayrimlari literal yoki kontekstual ma’nosi qisman saqlanib, umumiy obrazli mazmunni shakllantirishi dalillangan tahlil natijalarilaridan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy-ma’rifiy muassasalar nomoddiy milliy merosni rivojlantirish sho‘basi tomonidan 2023–2024 yillarda bajarilgan **(**I-203-4 raqamli) o‘zbek xalqining boy milliy til an’analari, nomoddiy madaniy merosi, ijtimoiy qadriyatlarimizning millatlararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va aloqalarni mustahkamlash borasida tuzilgan “Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirish” nomli fundamental loyiha ishlanmalarida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 15-avgustdagi 02-15-06-978-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilishi loyiha ishlanmalarining ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga, milliy til an’analarini frazeologik materiallar asosida boyitishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida adyektiv frazeologizmlarning asosiy qismi atributiv, predikativ, kontributiv predikativ pozitsiyasida bo‘lib, o‘zbek tili adyektiv frazeologizmlar morfologik tarkibiga ko‘ra maxsus tasnifga ega emasligi aniqlanib, grammatik xususiyatlari asosida guruhlarga ajratilgan va o‘zbek tilida ot + sifat (N + Adj) modeli (186 birlik) eng mahsuldor strukturaviy modelligi ilmiy asoslangan tahlil natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti

universitetining 2022–2024-yillarga mo‘ljallangan “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun o‘zbek tilining morfologik analizatori va morfoleksikoni dasturiy vositasini yaratish” (IL-402104209 raqamli) nomli innovatsion grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 15-maydagi 01/4-1996-son ma’lumotnomasi). Natijada, dasturiy vosita algoritmlarini ishlab chiqishda va morfologik qoidalarni shakllantirishda olingan natijalar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan;

tipologik tahlil natijasida o‘zbek tilidagi komparativ adyektiv frazeologizmlar morfo-sintaktik inkor transformatsiyalarni qabul qilmaydigan, semantik monolit birliklar ekanligi aniqlanib, ingliz tilida predlogli adyektiv frazeologizmlar eng produktiv tur sifatida dalillandi, o‘zbek tilida mustaqil predlogli adyektiv iboralar yo‘qligi, lekin binomial konstruksiyalarning mavjudligi ikki tilning grammatik-tipologik farqiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2023–2024-yillarda bajarilgan (I-203-4 raqamli) «Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirish» nomli fundamental loyiha ishlanmalarida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 15-avgustdagi 02-15-06-978-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha ishlanmalarining ilmiy-metodik asoslari takomillashtirilgan, hamda tillararo qiyosiy-tipologik tavsiflar boyitilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan xorijiy nashrlarda 5 ta maqola, mahalliy respublika jurnallarida 4 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Ishning **“Adyektiv frazeologizmlarning lingvokognitiv asoslari va ularning tadqiqot mezonlari”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat bo‘lib, bobda

sifatlarning leksik-frazeologik maydondagi iboraviylik xususiyatlari va faollik darajasi, adyektiv frazeologizmlar tavsifi hamda korpus materiallari asosidagi qo‘llanilish tahlili yoritilgan.

Bobning *“Frazeologizmlardagi adyektivlarning tarkibiy roli va qo‘llanish chastotasi”* nomli birinchi faslida sifatlarning tarixiy-nazariy tadqiqi, ularning iboralar ichidagi qiyosiy faolligi o‘rganilgan.

Sifatlar frazeologik birikmalarning ma’no va ifoda usullarini boyituvchi element sifatida tilning obrazli imkoniyatlarini kengaytirar ekan, bu esa ularni faqat grammatik birlik emas, balki frazeologizmlarning iboraviylik jihatlarini shakllantiruvchi muhim vositaga aylantiradi. Shunday ekan, bu muhim vositaning frazeologizmlar tarkibida qo‘llanilish chastotasini aniqlash zarurati tug‘iladi.

Tadqiqot materiali sifatida Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O‘razova va K. Rixsiyevalar[17] tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” (5198 ibora) hamda Sh. Shomaqsudov, S. Dolimov va U. Dolimovlar[18] muallifligidagi “Keng uyning kelinchagi yoki o‘zbek xalq matal va iboralari ensiklopediyasi” asos qilib olindi. Ushbu manbalardagi frazeologizmlar orasida sifat komponentiga ega 666 ta frazeologizmlar aniqlanib, ular tarkibida 103 xil sifat leksemasining qatnashgani ma’lum bo‘ldi.

Qiyoslanayotgan ikkinchi til, ya’ni ingliz tili frazeologiyasida sifatlarning chastotasini aniqlash maqsadida biz Oksford korpusi asosida yaratilgan “Oxford dictionary of idioms” to‘rtinchi nashrdan foydalandik [19].

Tadqiqotimiz uch bosqichda olib borildi. Dastlab frazeologizmlar qo‘lda ajratib olinib, ularning komponentlarida sifat leksemalari mavjudligi identifikatsiya qilindi. Keyingi bosqichda ajratilgan iboralar maxsus formatga o‘tkazilib, elektron ko‘rinishda tadqiqot uchun asosiy korpus shakllantirildi. Yakuniy bosqichda esa ushbu korpus asosida Sketch Engine platformasi vositasida so‘z shakllari, qo‘llanish chastotasi va kollokatsion imkoniyatlar aniqlanib, statistik tahlil amalga oshirildi.

Natijada eng ko‘p ishlatilgan 100 ta sifatning chastotasi o‘rganildi. Ular uch guruhga ajratildi:

Yuqori chastotali sifatlar (≥50): *good, own, old, big, bad* (59–146 marta). Ular egalik, baho, yosh, hajm kabi asosiy mezonlarni ifodalaydi *(a good deal, one’s own man, as old as the hills).*

O‘rta chastotali sifatlar (20–49): *dead, high, hot, black, white, short, clean* va boshq. Rang, harorat, o‘lcham kabi mezonlar bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘proq madaniy-metaforik ahamiyatga ega *(black sheep, cold feet, white lie).*

Quyi chastotali sifatlar (10–19): *rough, wild, soft, heavy, pale* va boshq. O‘rtacha chastotasi 11,2 bo‘lib, frazeologizmlarda kontekstual ekspressivlikni kuchaytiradi *(rough diamond, heavy heart).*

Umuman, korpusdagi 10 mingga yaqin idiomada 602 xil sifat qayd etilgan. Shundan 402 tasi past faollikka ega. Bu quyi faol sifatlarning ko‘pligi

[17] Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., & Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 636 b.

[18] Shomaqsudov Sh., Dolimov U., & Dolimov S. Keng uyning kelinchagi yoki o‘zbek xalq matal va iboralari ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2020. – 640 b.

[19] Ayto J. Oxford Dictionary of Idioms (4th ed.). – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1592 p.

frazeologiyada uslubiy xilma-xillikni ko‘rsatadi; ammo ular ishlatilgan idiomalar hamisha past faollikka ega degani emas, balki nechta iborada “qurilish materiali” sifatida qo‘llanilganini bildiradi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi eng ko‘p ishlatiladigan “Top 10” sifatni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda ham sifatlarning o‘ziga xos faollik darajasi mavjud bo‘lib, bu tillarning semantik va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. (*1-jadvalga qarang*). Sonlardagi farq sabablari – bu korpus hajmi, til resurslarining rivojlanish darajasi, ibora shakllanish madaniyati, zamonaviy uslubiy foydalanish imkoniyatlari, bu tilning global muloqot vositasi bo‘lishi, mediatizatsiya darajasi va keng korpusli tahlillar bilan bog‘liq. O‘zbek tili esa mazmun va badiiylik jihatidan boy, ammo korpusga asoslangan frazeologik bazasi hali to‘liq shakllanmagan. Bu esa tilshunoslar oldiga tilni tezkorlik bilan tizimlashtirish talabini qo‘yadi.

1-jadval

Ikki til frazeologizmlaridagi top-10 sifatlarning solishtirma faollik darajasi

№	Ingliz tili adyektivlari	Faollik darajasi	O‘zbek tili adyektivlari	Faollik darajasi
1.	good	146	Qora	49
2.	own	77	Oq	40
3.	old	73	Ochiq, yengil, sovuq	24
4.	big	63	Baland	22
5.	bad	59	Katta	20
6.	dead	44	Qattiq	19
7.	high	39	Past	16
8.	last	38	Issiq	15
9.	hot	37	Tor, og‘ir	13
10.	black	34	Uzun	12

Bobning *“Leksik-frazeologik maydonda sifatlarning iboraviylik xususiyati”* deb nomlangan ikkinchi faslida adyektivlarning ushbu maydon tarkibidagi o‘rni va ularning iboraviylik qirralari o‘rganilgan. Leksik-frazeologik maydon doirasida sifatlarning frazeologizmlar tarkibida qo‘llanilishi ularning semantik imkoniyatlari va uslubiy boyligini oshirish bilan birga tilning obrazlilik va emotsionallik darajasini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Masalan, ***bag‘ri qora, bag‘ri butun, bag‘ri qon, bag‘ri dog‘li, bag‘ri xun, bag‘ri keng.***

Yuqoridagi misollarda *bag‘ir* so‘zi odatiy ma’nosidan og‘ib, metaforik va iboraviy ko‘rinishda ishlatilgan. *Qora, keng, dog‘li, butun* kabi sifatlar bitta otga birikib, turli tuman ma’nolar hosil qilib, uning iboraviylik xususiyatini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Anisimova tadqiqotlarida ko‘plab frazeologik birliklarning birinchi komponenti sifat bo‘lib, u boshqa komponentlarni tasniflash xususiyatiga ega ekanligini qayd qiladi[20]. Uning “sifat+ot” modeli bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqoti FBlar

[20] Анисимова З.Н. Фразеологические единицы типа «прилагательное + существительное» в современном английском языке /с приложением словаря фразеологических единиц/. Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1954. – 428 с.

ichida sifatlarning turli vazifalari va ularning semantik o‘zgarishlarini tahlil qilishga qaratilgan.

N.M.Sidyakova ingliz tilidagi (as) + sifat + as + ot modelidagi qiyosiy frazeologik birliklarni tadqiq etib, ularning ikki komponentli strukturaga ega ekanligi va semantik jihatdan qayta talqin qilinishini ta’kidlaydi[21]. Tadqiqotchiga ko‘ra, birinchi komponent – sifat – odatda, motivlangan bo‘lib, o‘zining asosiy yoki ko‘chma ma’nosini saqlaydi. Shuningdek, sifat komponenti frazeologik birliklarda antonimik munosabatlarni shakllantirishda muhim semantik vosita sifatida namoyon bo‘ladi: as light as a feather va as heavy as lead.

Bobning *“Adyektiv frazeologizmlar va ularning korpus tahlili”* deb nomlangan uchinchi faslida adyektiv frazeologizmlar nima degan savolga javob berilgan.

Adyektiv frazeologizmlar – bu sifat so‘z turkumi bilan funksional moslikka ega bo‘lgan, shaxs, predmet yoki hodisaning belgi-xususiyatini ifodalovchi va baholovchi barqaror frazeologik konstruksiyalardir.

Adyektiv frazeologizmlar gap tarkibida semantik va morfosintaktik jihatdan yaxlit birlik sifatida namoyon bo‘lib, gapda ko‘pincha atributiv yoki predikativ pozitsiyada, ayrim hollarda esa kontributiv predikativ vazifada ishtirok etadi.

Frazeolog olim E.F.Arsentyeva quyidagicha ta’riflaydi: “Adyektiv frazeologizmlar – bu asosiy komponenti sifat bo‘lgan va funksional jihatdan sifatga mos keladigan frazeologik birliklardir[22].” Ammo bu ta’rif ingliz va o‘zbek tillari FBlarining tabiatini to‘liq ifoda etmaydi. Chunki har ikki tilda ham shunday frazeologizmlar mavjudki, ularning tarkibida sifat so‘z turkumiga mansub komponent bo‘lmasa-da, ular gapda sifat kabi funksional rol bajara oladi. Ingliz tilidan misollar: *on the ball – ziyrak, chaqqon; out of temper – jahli chiqqan; on cloud nine – nihoyatda xursand*. O‘zbek tilidan misollar: *bir ko‘ylak et – xom semiz, beso‘naqay; bag‘ri tosh – rahmsiz, hissiz; bag‘ri qon – iztirobli, g‘amgin*. Ushbu iboralarning hech birida asliy sifat qatnashmaydi, ammo ular tilda sifatlar kabi semantik va sintaktik funksiya bajaradi.

Adyektiv frazeologizmlarni quyidagicha ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Formal (struktural) jihatdan sifatdan tashkil topgan adyektiv frazeologizmlar – tayanch komponenti sifat so‘z turkumiga mansub bo‘lgan frazeologizmlardir. (*thick skin, black and blue, ichi qora, ko‘ngli toza* va h.k.)

Bu kabi AFlarda asosiy semantik yuk aynan sifatga yuklatilgan bo‘lib, u frazeologizmning turli sintaktik vazifalarda, jumladan predikativ, aniqlovchi yoki tavsiflovchi funksiyada qo‘llanishiga xizmat qiladi. Mazkur iboralar tarkibiy jihatdan sinfleksiv emas, balki barqarorlik va ko‘chma ma’no ifodalash xususiyatiga ega. Tayanch komponent qanday formadagi sifatdan iborat bo‘lishidan qat’iy nazar, bunday AFlar shaxs yoki predmetga xos doimiy yoki intensiv belgi-xususiyatni bildiradi hamda baholovchi-emotsional semantikani ifoda etadi.

---

[21] Сидякова Н.М. Компаративные фразеологические единицы типа (as) + прилагательное + as + существительное в современном английском языке: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1964. – 16 с.

[22] Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц, семантически ориентированных на человека, в русском и английском языках и вопросы создания русско-английского словаря. Дисс. ... докт. филол. наук. – Казань, 1993. – 326 с.

2. Funksional jihatdan adyektivlik xususiyatiga ega bo‘lgan frazeologizmlar – tarkibida sifat bo‘lmagan, ammo gapda sifatlardek xizmat qiluvchi iboralar. *(under the weather, over the moon, burni osmonda, onasi o‘pmagan, bir ko‘ylak et va h.k.).* Ushbu AFlar turi tayanch komponenti asosan sifatdoshli, predlogli yoki boshqa so‘z turkimidan tarkib topgan bo‘lib, ular nisbiy belgi ifodalovchi birliklar sifatida til tizimida faol ishlatiladi. Ko‘p hollarda ular orqali shaxs yoki predmetning vaziyatga bog‘liq, o‘tkinchi, dinamik holati ifodalanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillaridagi adyektiv frazeologizmlarning leksik-semantik tahlili”** deb nomlangan.

Bobning *“Semantik tavsif: denotativ va konnotativ ma’nolar”* nomli birinchi faslida adyektiv frazeologizmlarning denotativ va konnotativ ma’nolari, metaforik ko‘chish asosida shakllangan semantik xususiyatlari hamda milliy-madaniy konnotatsiyalari qiyosiy tahlil qilingan.

Adyektiv frazeologizmlarning semantik tahlili quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: 1. Denotativ va konnotativ ma’no o‘rtasidagi farqlar: *“blue blood”* (aslzoda) iborasida “blue” komponenti asosiy denotativ ma’nosi bo‘yicha *“ko‘k rang”*ni anglatadi. Ammo bu iborada *“blue”* so‘zi yuqori ijtimoiy tabaqaga mansublikni ifodalaydigan metaforik ma’noda ishlatilgan. O‘zbek tilidagi *“qora qozon”* iborasida “qora” komponenti rang ma’nosini anglatishi bilan birga, xalq hayotidagi oddiylik va mehnatkashlikni aks ettiruvchi konnotatsiyani o‘zida mujassamlashtiradi.

2. Metaforik transferlar: Frazeologizmlarning obrazlilik darajasi ularning tarkibiy qismlarining metaforik ko‘chishlari orqali yangi konnotatsiyalar hosil qiladi. Masalan: *full of beans* (so‘zma-so‘z: *“loviyalarga to‘la”*) iborasi dastlab otlarga nisbatan qo‘llanib, *“jo‘shqin, harakatchan”* ma’nosini anglatgan. Vaqt o‘tishi bilan mazkur birlikning ma’nosi kengayib, antropotsentrik mazmun kasb etgan hamda *“hayotga to‘la, quvvatli, energiyali”* degan umumiy ma’noda qo‘llanila boshlagan.

O‘zbek tilidagi *baland oxurdan yem yegan (suv ichgan)* iborasi ham dastlab otlarga nisbatan qo‘llanilgan. Biroq ibora xalq orasida ko‘chma ma’noda boy oilada katta bo‘lib, yaxshi sharoitda ulg‘aygan odamni tasvirlash uchun ishlatila boshlandi[23].

3. Madaniy va milliy konnotatsiyalar: Frazeologizmlar milliy mentalitetni ifodalaydi. Masalan*, red tape – byurokratik to‘siq, white elephant – keraksiz sovg‘a;* o‘zbek tilida: *oq yo‘l – yaxshi niyat; sariq chaqa – qadimiy pul birligi* asosida “arzimaslik”.

4. Sinonimiya va antonimiya: Inglizchada *as hard as rock – as hard as stone* sinonimik, o‘zbek tilida *og‘zi mahkam – og‘zi bo‘sh; terisi qalin – terisi yuqa* antonimik birliklardir.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *“Adyektiv frazeologizmlarning leksik-semantik guruhlari va ularning statistik tahlili”* deb nomlangan.

[23] Shomaqsudov Sh., Dolimov U., & Dolimov S. Keng uyning kelinchagi yoki o‘zbek xalq matal va iboralari ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2020. – 640 b.

Tadqiqotning asosiy obyekti – o‘zbek tilining frazeologik lug‘atlarida 7000 ga yaqin iboralar mavjud bo‘lib, shundan jami 797 tasi, ya’ni tildagi umumiy frazeologizmlar sonining taxminan 11,39 foizini adyektiv frazeologizmlar tashkil etadi. Ularni leksik-semantik tahlil qilish maqsadida quyidagicha tasnifladik.

Adyektiv frazeologizmlarning 18,2 % i insonning ijobiy fazilatlarini ifodalaydi (*bag‘ri keng, ko‘ngli pok, aqli raso, lafzi halol*), bu milliy mentalitetni aks ettiradi.

Salbiy xarakter xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlar esa 192 birlik (29,6 %) ni tashkil etib, tilimizda faol qo‘llaniladi *(dimog‘i baland, ichi qora, ko‘zi och, qo‘li egri).*

2-jadval

O‘zbek tili adyektiv frazeologizmlarning semantik taqsimoti.

Guruhlar	Subguruhlar	Ibora soni	Subguruh ulushi (%)
I. Shaxs (Umumiy: 648)	Insonning ijobiy xarakter xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlar	118	18.2%
	Insonning salbiy xarakter xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlar	192	29.6%
	Insonning neytral xarakter xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlar	41	6.3%
	Insonning chiroyli tashqi ko‘rinish	29	4.5%
	Insonning salbiy tashqi ko‘rinish	29	4.5%
	Insonning jismoniy holati	7	1.1%
	Insonning ijobiy his-tuyg‘ularini ifodalovchi frazeologizmlar	24	3.7%
	Insonning salbiy his-tuyg‘ularini ifodalovchi frazeologizmlar	57	8.8%
	Insonning ijtimoiy mavqei yoki ahvolini ifodalovchi frazeologizmlar	28	4.3%
	Ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi frazeologizmlar	12	1.9%
	Insondagi turli xil holatni ifodalovchi frazeologizmlar	111	17.1%
Jami:		**648**	**100%**
II. Predmetlar (Umumiy: 149)	Rang va ohang	21	14.1%
	Hajm va shakl	4	2.7%
	Holat va faktura	4	2.7%
	Miqdor va son	22	14.8%
	Zamon va makon	9	6.0%
	Abstrakt tushunchalar va holatlarni baholash	89	59.7%
Jami:		**149**	**100%**

Tashqi qiyofa ifodasida *bir qoshiq suv bilan yutguday* iborasi go‘zallikni, *rangi sovuq, rangi xino* kabi iboralar so‘lg‘inlik va kasallikni bildiradi. *Sovuq tabassum* – ichki sovuqlikni, *eti suyagiga yopishgan, po‘st-u-ustuxon* – ozg‘inlikni, *burni qo‘vadek, chumoli bel* – tana tuzilishidagi g‘ayrioddiylikni tasvirlaydi.

Jismoniy holatga oid *qirchillama yigit* – kuchli, sog‘lom, *tog‘ni ursa tolqon qiladigan* – g‘ayritabiiy kuch egasini bildiradi. Ijtimoiy mavqeni bildiruvchi iboralar *achib ketgan boy, pichog‘i moy ustida, beli baquvvat* shaxsning moliyaviy qudratini, *palagi toza* – nasl-nasab pokligi va ijtimoiy hurmatini, *zoti past* esa salbiy konnotatsiyani beradi.

Umuman, tahlillar salbiy baholovchi AFlar ijobiylardan ko‘proq ekanini ko‘rsatadi. Bu hodisa til leksikasida ham kuzatiladi, chunki kishilar tajribalarini ifodalashda ko‘pincha to‘siq va muammolarni yengishga urg‘u berishadi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli *“Frazeologik birliklarda semantik modifikatsiya va intensifikatsiya usullari”* deb nomlanib, unda adyektiv frazeologizmlarning semantik modifikatsiya va intensifikatsiya jarayonlari nazariy va amaliy misollar asosida tahlil qilingan.

Modifikatsiyaning semantik natijalari: a) Kengayish: *black and white thinking* avval dualistik fikrlashni bildirgan bo‘lsa, hozir “masalalarni soddalashtirib baholash” ma’nosini ham anglatadi. b) Konnotativ o‘zgarish: *green with envy* rashk bilan birga hasadning nozik tuslarini ham bildiradi. c) Torayish: *smooth operator* iborasi ayrim kontekstlarda faqat biznes doirasida ishlatilishi mumkin.

Tilshunoslikda intensifikatsiya adyektiv iboralarda ma’noni kuchaytirish jarayoni bo‘lib, ifodaning hissiy va semantik ta’sirini oshiradi. Uning asosiy ko‘rinishlari quyidagilardan iborat: a) Sintaktik intensifikatsiya – qo‘shimcha so‘zlar yordamida kuchaytirish: *As clear as* ***absolutely*** *crystal*.

E, Xudoyim-ey, bu sariqning turqi ***muncha*** *sovuq? Negayam shu ilonning dumini bosdim-a?* [N. Aminov. Yolgonchi farishtalar]

b) Morfologik intensifikatsiya – prefiks yoki suffiks orqali: *super-cool, ultra-bright;* o‘zbekchada *ko‘ngli top-toza, qop-qora.*

c) Takrorlash – bir sifatning qayta ishlatilishi: *very, very hot, oqi-oqqa.*

d) Metaforik intensifikatsiya – kuchli obraz orqali ta’sir berish: *As fierce as a lion”* (sherdek shiddatli) iborasi kuchaytirilgan obrazlilik hosil qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillaridagi adyektiv frazeologizmlarning qiyosiy strukturaviy-sintaktik xususiyatlari”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobning “*Ingliz va o‘zbek tillarida adyektiv frazeologizmlarning sintaktik tuzilmalari*” nomli faslida adyektiv frazeologizmlarning asosiy sintaktik tuzilmalari, ularning gap tarkibidagi funksiyalari, hamda ikki til o‘rtasidagi strukturaviy o‘xshashlik va farqlar o‘rganilgan.

Frazeologizmlar tarkibidagi grammatik komponentlar ularning strukturaviy va funksional xususiyatlarini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida adyektiv frazeologizmlar morfologik tarkib asosida maxsus tasniflanmagan. Tahlillarga tayanib, ular quyidagi guruhlarga ajratildi:

Komparativ adyektiv frazeologizmlar;

Nokomparativ adyektiv frazeologizmlar: a) predlogli; b) binomial va trinomial; c) sifatdoshli frazeologizmlar.

Frazeologik birlikning strukturaviy tasnifi ularning sintaktik qurilishini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adyektiv frazeologizmlar leksik komponentlari soniga ko‘ra sodda va murakkab tarkibli guruhlarga bo‘linadi. Sodda tarkiblilarda, odatda, ikki yoki uchta komponent ishtirok etadi.

Adj+N strukturasi. Ingliz tilida mazkur konstruksiyadagi frazeologik birliklar ko‘pincha adyektiv-substantiv birikmalar shaklida qo‘llanadi (*big mouth, thin skin, black sheep*). Ular grammatik jihatdan ot turkumiga xos vazifani bajaradi, biroq muayyan kontekstda adyektiv funksiyani ham bajarishi mumkin. Mazkur hodisa “funksional qayta tasniflanish” (functional reclassification) sifatida izohlanib, aksariyat hollarda birlikning metaforik ma’no kengayishi asosida yuzaga keladi. O‘zbek tilida esa *Adj+N* modeli ayrim hollarda substantiv, ayrim hollarda adyektiv ibora sifatida qo‘llanadi (*qora xat, qora sahifa* – substantiv; *qari tulki, katta og‘iz* – adyektiv). Bunda birlikning funksional-semantik xususiyati uning gapdagi sintaktik vazifasi va kontekstual ma’nosi asosida belgilanadi.

N+Adj strukturasi. Ingliz tilida mazkur shakl kam uchraydi, chunki sifat, odatda, otdan oldin keladi. Shunga qaramay, idiomatik postpozitiv birikmalar mavjud: *bone dry, paper thin, stone cold.* O‘zbek tilida esa ushbu struktura eng sermahsul bo‘lib, 186 ta birlikni tashkil etadi va asosan, shaxsning xususiyatini ifodalashga xizmat qiladi: *ko‘zi och, qo‘li gul, tili qisiq.* Ayrim birliklarda egalik affikslarining ishtiroki kuzatiladi: *ko‘ngli to‘q – ko‘nglim to‘q.*

Uchinchi bobning ikkinchi fasli *“Komparativ adyektiv frazeologizmlar”* deb nomlangan.

Korpus materiallarini tahlil qilish jarayonida ingliz tilida sifat komponentiga ega bo‘lgan 165 ta, o‘zbek tilida esa 73 ta KAF aniqlandi. Bu natijaga ko‘ra, bunday birliklar ingliz tilida o‘zbek tiliga nisbatan taxminan 2, 3 barobar ko‘proq uchraydi.

KAFlar ikki asosiy komponentdan iborat bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. Sifat – bu komponent obyektning xususiyatini yoki sifatini bildiradi, masalan, rang, shakl, holat va h.k.

2. Ot – bu komponent taqqoslashning obyektini yoki qiyoslanayotgan narsani bildiradi.

Qiyoslanayotgan tillardagi KAFlar o‘ziga xos strukturaga ega. Eng sodda va keng tarqalgan tuzilma ingliz tilida *as + adj + as + (a/the) + N*, o‘zbek tilida esa *Ot + day/dek + sifat* bo‘lib, bu konstruksiya komparativ frazeologizmlarning asosiy qismini tashkil etadi: *as soft as silk – ipakday mayin; as busy as a bee – chumoliday mehnatkash; pichoqdek o‘tkir – as sharp as a knife*. Ingliz tilida sifat prepozitsiyada joylashsa, o‘zbek tilida u postpozitsiyada keladi.

Keyingi model *as + adj + as + adj + N* bo‘lib *(as tough as old boots),* o‘zbek tilida bu sifat + day/dek + sifat + ot shaklida yuzaga chiqadi. Bunda *ot + sifatdosh + ot-day/dek* yoki *egalik qo‘shimchali ot + sifat* konstruksiyalari qo‘llanadi: *ashurchining eshagidek daqqi.*

As + adj + as + N + prep/conj + N tuzilmasi (masalan, *as different as chalk and cheese*) ingliz tilida obrazli va kengaytirilgan taqqoslashlar yaratadi. O‘zbek tilida ham shunga yaqin konstruksiyalar mavjud bo‘lib, tasviriylikni kuchaytiradi.

As + adj + as + sentence modeli esa *(as welcome as the day is long)* o‘xshatishni kuchaytiradi. O‘zbek tilida bunday tuzilma *“Yil o‘n ikki oy ko‘rishmagan oshiqlarday”* kabi gap asosida shakllanadi.

Inkor shaklli KAFlar ingliz tilida keng qo‘llanadi *(no better than; worse than useless)*, biroq o‘zbek tilida tipologik jihatdan deyarli uchramaydi. Chunki o‘zbekcha komparativ frazeologizmlar semantik jihatdan monolit bo‘lib, tarkibiga

yo‘q, emas, -mas kabi inkor elementlari qo‘shilsa, frazeologik yaxlitlik buziladi (*ko‘z qorachig‘imday emas* kabi shakllar kommunikativ jihatdan noto‘liq bo‘ladi).

Bobning *“Ingliz tilidagi predlogli adyektiv frazeologizmlar”* deb nomlangan uchinchi (3.3.) faslida ingliz tilidagi predlogli adyektiv iboralarning strukturaviy-statistik tahlili amalga oshirilgan.

Adyektiv frazeologizmlar tarkibida komparativ ma’no ifodalanishi ushbu birliklarning funksional-semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq komparativ xususiyatga ega bo‘lmagan frazeologik birliklar ham tilda barqaror semantik va stilistik vazifalarni bajaradi. Bunday birliklar qatoriga predlogli adyektiv frazeologizmlar kiradi. Ingliz tilida qiyoslanmaydigan AFlar orasida bu turdagi iboralar keng tarqalgan bo‘lib, ko‘pincha metaforaga asoslangan bo‘ladi. *Prep+(article)+N (predlog+(artikl)+ot)* tuzilmasida *at, in, on, down, of, out of, off, up to,behind, below, beyond, under, without kabi* predloglar ishtirok etadi. Masalan, *in blood – qoni qaynagan; over the hill – yoshi o‘tgan, kuchdan qolgan; over the moon – boshi osmonga yetgan; on the ball – chaqqon, hushyor, sergak, ziyrak.*

*Marie’s pretty **under the weather** for the next couple of days. [BNC, doc.ID:A74]*[24]

